

*Berdiyeva Gavhar Rustamovna*  
*“Termiz” Davlat muzey-qo‘riqxonasi*  
*Fond ishi bo‘limi katta ilmiy xodimi*

## JARQO‘TON MANZILGOHINING O‘RGANILISH TARIXI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jarqo‘tonning O‘zbekiston hududida ilk shahar sifatida o‘rganilishi tarixi va ahamiyatli jihatlari borasida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda shahar madaniyatining shakllanishi, Jarqo‘ton ibodatxonasining ahamiyati, aholining diniy e‘tiqod shakli, bu yerdan topilgan yozuvning va muhrlarning o‘rganilishi, diniy boshqaruvning ahamiyatidagi masalalar qiyosiy tahlil asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bronza davri, sivilizatsiya, shahar, ark, saroy, shahriston, madaniyat, ibodatxona, diniy boshqaruv.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganar ekanmiz, uning shakllanishida ilk shaharlarning o‘rni yuqori ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu shaharlarni o‘rganishda Jarqo‘tonning ilk shahar sifatida e‘tirof etilishi diqqatga sazovardir. Chunki, Jarqo‘ton yodgorligida shahar toifasiga oidligini tasdiqlovchi saroy qoldig‘i, mafkuraviy markaz bo‘lganligini bildiruvchi ibodatxona, shohlar saroyi joylashgan arkning mudofaa devorlari bilan o‘rab olinganligi, jamoalarning ijtimoiy guruhlariga ajralganligini ko‘rsatuvchi minglab qabrlar aholisining hunarmandchilikda, me‘morchilikda erishgan yutuqlariga qarab A. Asqarov va Sh. Shirinovlar Jarqo‘ton yodgorligini ilk shahar toifasiga kiritishadi. O‘rta Osiyoda ilk shaharlar paydo bo‘lish shart-sharoitlari va o‘ziga xos xususiyatlarini arxeologik ma‘lumotlar asosida o‘rganishda Jarqo‘tonda ilk shaharga oid barcha xususiyatlar o‘z tasdig‘ini topganligini arxeologik va ilmiy manbalar to‘la tasdiqlagani bilan ham ahamiyatlidir. Davlatchilikning vujudga kelishida uning bosh ildizi ilk shaharlarga borib taqaladi. Chunki, shaharlar davlatning ma‘muriy, xarbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida mavjud bo‘lgan. Shu jumladan, Jarqo‘ton o‘zbek davlatchiligining shakllanishida ilk shahar vazifasini bajarib, diniy mafkura asosida boshqarilgan. Jarqo‘ton nafaqat diniy markaz, balki jamiyatning boshqaruv markazi ham bo‘lgan. Bu yerda ibodatxona qurilishigacha qandaydir boshqaruv markazi saroyga o‘xshash inshoot bo‘lib, bu inshoot avval jamiyatning boshqaruv markazi bo‘lgan. Qadimgi shahar madaniyati zaminida o‘zbek davlatchiligining asosiy omillari va poydevori yotadi. Shaharlar va davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi quyidagi 3 ta davrlarga bo‘linadi:

1. Dehqonchilik o‘lkalari doirasida tarkib topgan shaharlar (shahar-davlatlar). Bu davr shaharlari mil.avv. II mingyillikda tashkil topgan. Qadimgi Baqtriya hududida o‘rganilgan Jarqo‘ton, Dashli I kabi yodgorliklar bu davr shaharlari bo‘lib o‘zaro bog‘liqlik aloqalarini kuzatish mumkin. 2. Hududiy davlat markazi rolini bajargan shaharlar. Bu davr shaharlari mil.avv I mingyillik boshlarida tashkil topgan. Qiziltepa, Jondavlattepa, Dalvarzin, Ashqaltepa (Farg‘ona), Ko‘ktepa va boshqa yodgorliklar hududiy davlatlarning siyosiy va mafkuraviy markazi bo‘lgan. 3. Markazlashgan davlatlar, imperiyalar davri shaharlari. O‘rta Osiyo hududlarida Qadimgi Baqtriya, Katta Xorazm podsholiklarining vujudga kelishi va ularning Ahamoniy imperiyasi tarkibiga kirishi bilan shaharlar taraqqiyotining ushbu bosqichi boshlanadi.

2. Surxondaryo viloyatidagi 4000 yillik «Jarqo‘ton» yodgorligidan taqinchoq va sopol idishlar bilan birga ko‘milgan odam qabrlari topildi. Bu haqda Madaniy meros agentligi Matbuot xizmati xabar [berdi](#).

3. Qayd etilishicha, davlat rahbarining Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida vohadagi 10 ta madaniy meros ob‘yektlarida dunyoning yetuk arxeologiya institutlari va ilmiy markazlari olimlarini jalb qilib, o‘rganish ishlarini olib borish topshirig‘i berilgan.

4. Agentlikning ta'kidlashicha, bugungi kunda O'zbekiston-Fransiya qo'shma ekspeditsiyasida Fransiya milliy tadqiqot markazi, Termiz davlat universiteti, O'zbekiston milliy universiteti arxeolog olimlari ishtirokida qazishma ishlari olib borilmoqda.

Ma'lumot o'rnida, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar xarobalari hisoblanadi. Arxeologlar tomonidan Jarqo'ton yodgorligida hukmdor saroyi, hunarmandchilik ustaxonalari, otashparastlar ibodatxonasi va 20 gektar maydonda qadimiy qabriston ochib o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan so'ngi bronza davriga oid qadimgi dehqonchilik madaniyati moddiy ashyolari Toshkent, Samarqand shaharlaridagi hamda Termiz arxeologiya muzeyida saqlanadi.

Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida joylashgan Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar harobalari hisoblanadi. Arxeologlar tomonidan Jarqo'ton yodgorligida hukmdor saroyi, hunarmandchilik ustaxonalari, otashparastlar ibodatxonasi va 20 gektar maydonda qadimiy qabriston ochib o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan so'ngi bronza davriga oid qadimgi dehqonchilik madaniyati moddiy ashyolari Toshkent, Samarqand shaharlaridagi hamda Termiz arxeologiya muzeyida saqlanmoqda.

Sh.B.Shaydullayevning fikricha, ilk shaharlar shaharlar bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan ilk davlatlar boshlang'ich yozuv usuli ya'ni inson o'z fikrini ifoda etishsiz davlatning ham vujudga kelishi mumkin emas. Boylikning oshishi sanoqqa xo'jalikni boshqarish jarayonining murakkablashishi va yozuvga ehtiyoj tug'diradi<sup>5</sup>. Shu jumladan, Sopillitepa yodgorligi sopollaridan topilgan 29 ta belgi va Jarqo'ton yodgorligidan topilgan 52 xil belgi – yozuv bronza davrida ilk yozuv paydo bo'la boshlaganini ko'rsatadi. Ayrim belgilar sopollarda 2-3marta uchrasa, juda ko'p belgilar bir marta chizilgan va shaklan boshqa qaytarilmaydi. Jarqo'ton yodgorligini Janubiy Turkmanistondagi bronza davri Oltintepa yodgorligi ma'morchiligi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, arxeologlar Oltintepa yodgorligini qazish natijasida paxsadan va xom g'ishtdan ishlangan zinapoyali ibodatxonani ochganlar. Ibodatxona xonalaridan birida muqaddas o'choq bo'lib unda muqaddas olov yonib turgan<sup>6</sup>. Xuddi shu jihatdan Oltintepadan ibodatxonaning topilishi va u yerda olov yonib turganligini biz Jarqo'ton ibodatxonasi misolida ham ko'rgandik. Shu o'rinda alohida qayd etish joizki, Jarqo'ton singari Oltintepa ham ilk shahar vazifasini bajargan. Buni biz Oltintepaning qadimgi dehqonchilik rayonlarining iqtisodiy markazi bo'lganligi, Oltintepadan ibodatxonaning topilishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, savdo ayirboshlashning mavjudligi, kattakichik jamoa uylarining bo'lganligi misolida ham ko'rdik. Shuningdek, Oltintepada Eron, Janubiy Afg'oniston, Hindistondan keltirilgan sopol idishlar va matall buyumlar ham uchragan. V.M.Masson Oltintepa qadimgi ilk shahar qatlamlaridan Namozgoh IV va V davriga tegishli yuzdan ortiq ayol ma'budlariga chizilgan piktografik belgilarni topdi. Bu belgilar olimning fikriga qaraganda o'zining shakli, xarakteri bo'yicha Xarappa va Shummer hamda protoelam yozuvlaridan deyarli farq qilmaydi. Aynan shunday piktografik belgilardan 30 dan ziyodrog'i Sopollitepadan ham topilgan edi. Yozuvning mavjudligi esa ilk shahar xususiyatini belgilovchi muhim elementlardan biridir<sup>7</sup>. Jarqo'ton va Oltintepada yozuvning mavjud bo'lganligi ham ularning o'xshash va ilk shahar sifatida e'tirof etilishiga zamin yaratgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jarqo'tonda ilk shaharga oid barcha xususiyatlar va alomatlar o'z aksini topganligini ilmiy tadqiqotlar to'la tasdiqlaydi. Jarqo'tondagi barcha shaharsozlik alomatlari juda yaxshi o'rganilgan. Lekin Jarqo'tondan topilgan odam byusti ya'ni portret janrida yasalgan odamning haykali loydan yasab quyoshda quritilgan ammo nima uchun kuydirilmaganligi hali yaxshi o'rganilmagan va bizni qiziqtirgan jihat hisoblanadi. Agar haykal olovda kuydirilganda edi balki, hozirgacha yaxshi saqlangan bo'lar edi. Jarqo'tondagi haykaltaroshlik namunalari, san'ati hali yaxshi o'rganilmagan va amaliy san'at namunalari ochib berilmagan. Jarqo'tondagi haykaltaroshlik san'atinamunalari o'rganish va bu bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish bugungi kun biz tadqiqotchilarning oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, Jarqo'ton ibodatxonasi qoshida o'quv-amaliy muzey tashkil etilsa maqsadga muvofiq ish bo'lar edi, ayniqsa muzey qoshida Jarqo'ton davriga oid moddiy eksponatlar o'rin olib arxeologik tadqiqot natijalari amalda



moddiy madaniyat namunalari orqali ko‘rsatib berilsa, bu bevosita tadqiqot doirasini kengaytirib amalda yaqindan ko‘rib mahalliy va turistik qiziquvchilar doirasini kengaytirishga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ЭшовБ. ЎртаОсиёнингқадимгишаҳарларитарихи. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.
2. ШайдуллаевШ.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари – Самарқанд., 2009.
3. АсқароваА. Энгқадимийшаҳар. – Т.: Маънавият, 2001.
4. АсқароваА. Ўзбекхалқинингкелибчиқиштарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
5. Шайдуллаев А., Боқиев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Т., 2015.
6. Кабиров Ж., Сағдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
7. Erqulova Sh. Oltintepa-shaharmonand shahri tarixi. – Т., 2016.
8. KaiK. The metallurgy of the late bronze age Sapalli culture(southern Uzbekistan) and its implications for the thin question. – Т., 2007.
9. Kai K., Shaydullaev A. The sapalli culture seal corpus. – X., 2022